



**GLOBALIZATSIYA JARAYONINING SAN'AT VA BADIY
ADABIYOT VOSITASIDA MILLIY QADRIYATLARGA
TRANSFORMATIV TA'SIRI**

O'zbekiston – Finlandiya pedagogika instituti Milliy g'oya va falsafa kafedrası
o'qituvchisi,
Xoliqulov M.Q.

O'zbekiston – Finlandiya pedagogika instituti talabasi,
Jumanov H.N.

Annotatsiya: *Ushbu maqolada globallashuv jarayonining san'at, badiiy adabiyot, milliy ma'naviyat va qadriyatlar shakllanishiga ta'siri tahlil qilinadi. O'zbek milliy ma'naviyatining tarixiy rivojlanishi, turli davrlarda boshqa madaniyatlar bilan o'zaro ta'siri, shuningdek, globallashuvning transformatsiyalashuvi milliy an'analar va qadriyatlarning boyishi va o'zgarishiga olib kelishi, uning ijobiy hamda salbiy oqibatlari to'g'risida ijtimoiy-falsafiy muhokama qilinadi.*

Kalit so'zlar: *globallashuv, milliy ma'naviyat, madaniy integratsiya, san'at, badiiy adabiyot, milliy qadriyatlar, til taraqqiyoti, teatr san'ati, ilm-fan, o'zaro ta'sir, tarixiy meros, zamonaviylik.*

Globalizatsiya zamonaviy dunyoning eng muhim jarayonlaridan biri bo'lib, u iqtisodiyot, siyosat, fan, san'at va adabiyot kabi sohalarga chuqur ta'sir ko'rsatmoqda. Ushbu jarayon milliy madaniyat va qadriyatlarning shakllanishida kotolizator vazifasini o'tamoqda. Ayniqsa, san'at va badiiy adabiyot globalizatsiya ta'sirida turli o'zgarishlarga uchrab, milliy ma'naviyat va identifikatsiyani



boyitishda vosita sifatida xizmat qilmoqda. Globalizatsiyaning san'at va badiiy adabiyot vositasida milliy qadriyatlarga transformativ ta'siri oshib bormoqda.

Dunyoda kechayotgan globallashuvning kechish qonuniyatlari XXI asrga kelib o'zining misli ko'rilmagan cho'qqisiga ko'tarilgani, jahon siyosiy sahnida joy olgan davlatlarda birlamchi ko'zga tashlanayotganligini kuzatish mumkin. Yurtimizda globallashuvning transformatsiyalashuv jarayoni jadal rivojlanar ekan, ma'naviyatimizga, qadriyatlarimizga yod zararli unsurlarning kirib kelishi, uning jamiyat strukturasi salbiy ta'sir o'tkazishiga yo'l qo'ymaslik. Bu orqali, yoshlarning dunyoarashi shaklanish jarayonida milliy qadriyatlar va umumbashariy ma'naviyat orqali tarbiyalashga oid davlat siyosati amalga oshirilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasining "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"¹gi Qonuni, Prezidentning "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"²gi Farmonining V. Ma'naviy taraqqiyotni ta'minlash va sohani yangi bosqichga olib chiqish, deb nomlangan bobida "Yangi O'zbekiston — ma'rifatli jamiyat" konsepsiyasini amalga oshirish mexanizmlarni ishlab chiqish hamda amalga ochirish usul va vositalari keltirilgan³.

Ajdodlarimiz tarixi jahon xalqlari ma'naviyatiga hurmat bilan qarash, kerakli joylarini o'rganib, ijodiy rivojlantirish orqaligina ma'naviyat cho'qqisiga erishish mumkinligidan guvohlik beradi. Milliy ma'naviyatlar o'zaro ta'sir jarayonida rivojlanadi. Har qanday xalq ma'naviyati rivojiga nazar tashlansa, uning bashqa xalqlar udum va an'alarini qanchalik o'zlashtirib va rivojlantirib borganini ko'rish mumkin.

O'zbek milliy ma'naviyati ham uzoq va yaqingi qo'shnilarning ilg'or

¹ O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 14.09.2016 yildagi O'RQ-406-son. [<https://lex.uz/docs/-3026246>]

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022 yildagi PF-60-son. [<https://lex.uz/uz/docs/-5841063#-5844411>]

³ Mirziyoyev Sh. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. –T.: "O'zbekiston" nashriyoti. 2022-yil. –B.247-279.



an'analarini o'zlashtirish natijasida boyib bordi. Ma'naviyatimizning rivojlanish tarixini kuzatsak, bunga yana bir bor ishonch hosil qilish mumkin. XX asr boshlaridagi o'zbek madaniyati va ma'naviyati hamda uning asr oxiridagi holati o'rtasida ancha jiddiy tafovut bor. Bu tafovutni adabiyot, san'at, fan, hatto oddiy yurish - turish va kiyim - kechak, turmush sohalarida ham kuzatish mumkin.

XX asr boshida o'zbek adabiyotida dramaturgiya janri hali shakllanmagan edi. Demak, milliy teatr san'ati to'g'risida so'z ham yuritish mumkin emas edi. Keyinchalik hayotimizga sarhadning biz uchun yangi janrlari: opera, balet, simfonik musiqa kabilar kirib keldi. Munavvarqori Abdurashidxonov, Mahmudxo'ja Behbudiy, Fitrat singari ma'rifatparvarlarning sa'y - harakatlari tufayli dramaturgiya shakllana boshladi va keyinroq teatr san'ti vujudga keldi. O'sha paytlarda teatr san'atini o'zbek millati uchun yod begona g'oya deb e'lon qilganlar oz emas edi.

Dramaturgiya va teatrni rad qilish faqat dahanaki tanqid bilan chegaralanmagan. San'atning bu turini O'zbekistonga olib kirishga harakat qilayotgan insonlarni mazah qilish, hatto sazoyi qilish o'zlarini milliy ma'naviyat himoyachilari, deguchilar tomonidan amalga oshirilgan edi⁴.

Hamma narsa uchun oliy hakam hisoblanadigan vaqt esa, teatr san'ati milliy ruhiyatimiz va ma'naviyatimizga yod, deguchilarning o'zlari milliy ma'naviyat rivojiga g'ov bo'lganini. Hozirgi kunda har million kishiga hisoblaganda teatrlar soni bo'yicha ko'rsatdi. O'zbekiston dunyodagi eng ilg'or o'rinlardan birini egallaydi va teatr milliy ma'naviyatimizning uzviy qismiga aylangan.

Globalashuv jarayoni milliy tillarga ham ijobiy ta'sir qiladi. Uning ta'sirida milliy tillar boyiydi. Milliy tilda ilg'or fan, texnika va texnologiyaning qator so'zlari, iboralari, ayniqsa zamonaviy fan - texnika texnologiyaga tegishli terminlar

⁴ Abdug'afurov A. Qalb qa'ridagi qadriyatlar. –T.: O'qituvchi, 1998-yil. –B.128.



ishlatiladi⁵.

Inson — o‘z davrining hosili, farzandi va yaratuvchisi. Globallashuv davrida uning shakllanishi millatlarning, davlatlarning, mintaq va qit‘alarning jadal sur‘atlar bilan yaqinlashishi pallasiga to‘g‘ri keladi.

Bu umumbashariy jarayon milliy ongning shakllanishi va takomillashishiga, milliy til bir qatorda boshqa millatlar va birinchi navbatda yirik, ilg‘or millatlar tili, milliy ongi, milliy hislatlarining ta‘siriz kuchmaydi⁶.

Bunday jarayonlarning millat uchun xavfi yo‘q, aksincha u millat ongini, tafakkurining kengroq va chuqurroq jabhada amalga oshishiga yo‘l ochadi, millatning boshqa millatlar bilan yaqinlashishini, ularning ijobiy tomonlarini qabul qilib oshishini va ayni vaqtda o‘z millatining diqqatga sazovor jihatlarini boshqa millatlar qabul qilib olishini tezlashtiradi, kengaytiradi.

Globallashuv insoniyatni yangi sifat darajasiga ko‘taradigan katta tarixiy pallalar. U millatlarning rivojlanishi, buning uchun o‘zaro yanada yaqinlashishi, hamkorligi, bunyodkorligi uchun misli ko‘rilmagan yangi istiqbollar ochadigan tarixiy palladir. Bu davrda millatlarning yaqinlashishi yangi miqyos va mazmunga ega bolishiga olib keladi. Ilgarilari cheklangan darajada, ba‘zi mintaqalarda kengroq va chuqurroq mazmunga, boshqa mintaqalarda esa aksincha edi.

Globallashuvning yangi yutuqlari bu noratsionallik nishonalarini tekislab, insoniyat bir oila degan hisning insonlar ongida mustahkamlashishga keng imkoniyat ochadi. Milliy ong o‘tmishdan farqli o‘laroq, faqat til asosida emas, u bilan bir qatorda boshqa milliy va xalqaro yoki millatlararo tillar orqali ham boyib, takomillashib boradi, chunki uning is‘temolchilari o‘z milliy tillari bilan bir qatorda boshqa tillardan va birinchi navbatda, xalqaro tillar va mintaqaviy millatlararo tildan foydalanadilar.

⁵ Abdullayev M, Umarov E va boshqalar. Madaniyatshunoslik . –T.: “Turon- Iqbol”, 2006-yil. –B.47.

⁶ Bekmurodov M. O‘zbek mentaliteti. –T .: “Ma‘naviyat”, 2004-yil. –B.63.



Milliy kiyimlar ham milliy qadriyatlardan biri hisoblanadi. XX asr davomida ana shu qadriyatimizning ham tadrijini kuzatsak, g‘aroyib hodisalarning guvohi bo‘larniz. O‘tgan asr boshlarida mahalliy qishki kiyimi telpak yoki etikdan iborat. Yozgi kiyim esa do‘ppi, ko‘ylak yoki yaktak, oq lozim va shippak yoki kovushdan iborat edi. Hozirgi kunda kiyinishimizga yevropacha kiyimlar: palto, plash, kostyum-shim, shlyapa, galistyuk kabilar keng tarqalgan. Shuningdaek, turmush tarzimizga yangi bayramlar, urf- odatlar: yangi yilni kutib olish, xalqaro xotin- qizlar kunini nishonlash, tug‘ilgan kunni nishonlash kabilar kirib keldi. Milliy menyumizdan boshqa millat va xalqlarning taomlari: kotlet, shnitsel, bifshteks, borsh, besh barmoq, cheburek va boshqalar joy oldi. Yuqorida keltirilgan fikrlarni dalillash maqsadida kino san‘atimizga ham murojaat qilish joizdir. Xususan, sobiq ittifoq davrida milliy kino san‘ati ko‘plab durdonalarini yaratdi, uni hech ham inkor etib bo‘lmaydi. Lekin shuni ham unutmaslik kerak-ki, komunistik mafkuraga bo‘ysundirilgan kino san‘ati anchayin ayanchli holda edi. Xususan, barcha kino filmlar komunizmni tarannum etibgina qolmasdan, bizning hurligimiz uchun kurashgan xalq harakatini bosmachilik talqinida qoralash propagandasi amalga oshirilgan.

Kun.uz saytida e‘lon qilingan “O‘zbekfilm” yoki “Basmachfilm” – filmlarda sovet targ‘iboti⁷, sarlavhasi ostida e‘lon qilingan video materialda anchayin achinarli tarxiy ma‘lumotlar keltirilgan. Unda farzandlarning o‘z ot-onalariga nisbatan qarshiliklari, ichkilikbozlik, dinsizlik, qo‘rboshilarga nisbatan nafrat, tarixiy shaxslarni mensimaslik, yomonotliq qilish holatlari kuzatilgan.

Tariximiz ilm-fan, din, san‘at sohasida yurtimizda yetishib chiqqan allomalar butun dunyoga dong taratganidan, demakki, butun dunyo ma‘naviyatiga katta ta‘sir o‘tkazganidan guvohlik beradi. Abu Nasr Forobiy jahon falsafasi rivojiga sezilarli hissa qo‘shgan bo‘lsa, Abu Rayhon Bemniy, Abu Ali ibn Sino, Zamahshariy, Xorazmiy, Mirzo Ulug‘bek singari allomalarimiz jahon fanini yangi

⁷ <https://www.youtube.com/watch?v=M4BvojFtx5I&pp=ygUGa3VuLnV6>



pogʻonalarga koʻtarishdi. Ismoil Buxoriy, at Termiziy, Moturidiy, Abduholiq Gʻijdivoniy, Bahovuddin Naqshband, Ahmad Yassaviylar esa hadis, kalom, fiqh ilmlari va tasavvufda porloq yulduzlar hisoblanadi. Amir Temur va Mirzo Bobuming harbiy sanʼati naqadar yuksakligini butun jahon eʼtirof etadi.

Xulosa oʻrnida shuni eʼtirof etish joizki, Shoʻrolar davrida milliy qadriyatlarimizni dunyoga yoyish u yoqda tursin, oʻz yurtimizda qadrlari uchun ham yoʻl berishmadi, koʻpchilik qadriyatlarimiz esa toptashdi. Mustaqillikka erishganimizdan keyin oʻsha toptalgan qadriyatlarimizni tiklash, milliy qadriyatlarimizni targʻib qilish imkoniga ega boʻldik. Oʻzbek milliy qadriyatlarimizni kurashini dunyoga yoyish boʻyicha qilingan ishlar, dunyoning koʻpchilik mamlakatlarida oʻzbek kurashi federatsiyalarining tuzilishi buning yaqqol misoli.

Dunyo bugun oʻzbekistonni milliy - madaniy merosi, boy tarixi, tili, madaniyati, urf-odat va anʼanalarining umuminsoniy gʻoyalar bilan mutanosibligi, sanʼat va arxitektura, fan va madaniyat sohasida, erishayotgan yutuqlari orqali ham kashf etmoqda. Demak, bu globallashuv jarayonida passiv qabul qiluvchi tomongina boʻlmay, faol targʻib qiluvchilarga ham aylanishimiz mumkin.

ADABIYOTLAR ROʻYXATI

1. Abdullayev M, Umarov E va boshqalar. Madaniyatshunoslik . –T.: “Turon-Iqbol”, 2006-yil. –B.47.
2. Abdugʻafurov A. Qalb qaʼridagi qadriyatlar. –T.: Oʻqituvchi, 1998-yil. – B.128.
3. Abduqodirov, Asilbek, and Muhammad Xoliqulov. "YOSHLARDA MAFKURAVIY IMUNITETNI SHAKLLANTIRISHDA TAʼLIM TIZIMINIDAGI KONSEPTUAL JIHATLARI." *Академические исследования в современной науке* 3.27 (2024): 100-105.
4. Abduqodirov, A., & Xoliqulov, M. (2024). YOSHLARDA MAFKURAVIY



IMUNITETNI SHAKLLANTIRISHDA TA'LIM TIZIMINIDAGI KONSEPTUAL JIHATLARI. *Академические исследования в современной науке*, 3(27), 100-105.

5. Azlarova, Ozodaxon Xasanxonovna. "DAVLATNING KELIB CHIQISHI NAZARIYASI (SIVILIZATSION YONDASHUVLAR MISLIDA)." *Analysis of world scientific views International Scientific Journal* 3.1 (2025): 141-149.

6. Azlarova, O. X. (2025). DAVLATNING KELIB CHIQISHI NAZARIYASI (SIVILIZATSION YONDASHUVLAR MISLIDA). *Analysis of world scientific views International Scientific Journal*, 3(1), 141-149.

7. Bekmurodov M. O'zbek mentaliteti. –T .: “Ma’naviyat”, 2004-yil. –B.63.

8. Abduqodirov, Asilbek, and Muhammad Xoliqulov. "YOSHLARDA MAFKURAVIY IMUNITETNI SHAKLLANTIRISHDA TA'LIM TIZIMINIDAGI KONSEPTUAL JIHATLARI." *Академические исследования в современной науке* 3.27 (2024): 100-105.

9. O'G'LI, X. M. Q. (2024). GEO-MAYYALOGIK JARAYONLAR VA ULARNING KELIB KELISHI QONUNLARI. *Falsafiy tadqiqotlar va ijtimoiy fanlar xalqaro jurnali*4, 1, 22-27.

10. Kholikulov, M. (2023). Scientific-Theoretical and Philosophical Origin of the Doctrine of Unity in Sufism.

11. Kholikulov, Mukhammad. "Scientific-Theoretical and Philosophical Origin of the Doctrine of Unity in Sufism." (2023).

12. Kholikulov, Muhammad, and Hasan Jumanov. "THE CONCEPT OF PERSONAL PERFORMANCE IN THE THOUGHT OF ABU MANSUR MATURIDI." *Bulletin news in New Science Society International Scientific Journal* 2.1 (2025): 252-261.

13. Kholikulov, M., & Jumanov, H. (2025). THE CONCEPT OF PERSONAL PERFORMANCE IN THE THOUGHT OF ABU MANSUR MATURIDI. *Bulletin news in New Science Society International Scientific Journal*, 2(1), 252-261.

14. qizi Rustamova, Odinabonu Shavkat. "MARKAZIY OSIYODA O'ZBEKISTONNING GEOSIYOSIY VA GEOSTRATEGIK O'RNI VA ROLI (ZBIGNEV BJENISKIYNING “BUYUK SHAXMAT TAXTASI ASARI ASOSIDA)." *Analysis of world scientific views International Scientific Journal* 3.1 (2025): 150-157.

15. qizi Rustamova, O. S. (2025). MARKAZIY OSIYODA O'ZBEKISTONNING GEOSIYOSIY VA GEOSTRATEGIK O'RNI VA ROLI (ZBIGNEV BJENISKIYNING “BUYUK SHAXMAT TAXTASI ASARI ASOSIDA). *Analysis of world scientific views International Scientific*



Journal, 3(1), 150-157.

16. Xoliqulov, Muhammad Qaxor O'G'Li. "MA'NAVIYAT TUSHUNCHASINING MOHIYATI, UNING JAMIYAT STRUKTURASIDAGI O'RNI VA ROLI." *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences* 4.26 (2024): 384-388.

17. Xoliqulov, M. Q. O. G. L. (2024). MA'NAVIYAT TUSHUNCHASINING MOHIYATI, UNING JAMIYAT STRUKTURASIDAGI O'RNI VA ROLI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 4(26), 384-388.

18. O'G'Li, X. M. Q., & G'Ofirova Muxlisa, G. (2024). Ofur Qizi." A. NAVOIYNING AR. BAIN (QIRQ HADIS) ASARIDA TARBIYA TO 'G 'RISIDAGI QARASHLARI." *TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI*, 4, 24-28.

19. O'G'Li, Xoliqulov Muhammad Qaxor, and G. G'Ofirova Muxlisa. "Ofur Qizi." A. NAVOIYNING AR." *BAIN (QIRQ HADIS) ASARIDA TARBIYA TO 'G 'RISIDAGI QARASHLARI." TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI* 4 (2024): 24-28.

20. O'G'LI, XOLIQULOV MUHAMMAD QAXOR. "GEO-IDEOLOGICAL PROCESSES AND LAWS OF THEIR ORIGIN." *International Journal of Philosophical Studies and Social Sciences* 4 (2024): 22-27.

21. O'G'LI, X. M. Q. (2024). GEO-IDEOLOGICAL PROCESSES AND LAWS OF THEIR ORIGIN. *International Journal of Philosophical Studies and Social Sciences*, 4, 22-27.

22. Sadriyevna, Azizova Laylo, and Xoliqulov Muhammad Qaxor o'g'li. "KOMIL INSON FALSAFIY GENEZISIDA ABU ALI IBN SINO QARASHLARI TAHLILI." *BARCHA SOHALAR BO 'YICHA* 32.10 (2023).

23. Sadriyevna, A. L., & Qaxor o'g'li, X. M. (2023). KOMIL INSON FALSAFIY GENEZISIDA ABU ALI IBN SINO QARASHLARI TAHLILI. *BARCHA SOHALAR BO 'YICHA*, 32(10).